

**TA’LIM JARAYONIDA MILLATLARARO TOTUVLIK TA’MINLASHDA
OLIIY TA’LIM MUASSASALARINING ROLI**

Farg‘ona davlat universiteti Pedagogika kafedrası p.f.b.f.d (PhD) dotsenti

Sh.O.Aripov

ORCID 0000-0002-7703-0027

Mo‘ydinova Mohlarbegim Abdulla qizi 25.23

Hotamjonova Ruxshonabonu A‘zamjon qizi 25.24

Kadirova Gulnoza Adhamjonovna 24.23

Babayeva Muniraxon Salimbek qizi 24.23

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so‘nggi yillarda ta‘lim sohasini isloh qilishga, kadrlar tayyorlash sifatini tubdan takomillashtirishga, xususan, tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tatbiq etishga jiddiy e‘tibor qarata boshladi. Bu boradagi islohotlar 2017-yil 14 martdagi “O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 20 apreldagi “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 22 maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 8 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi, 2017-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2020-yil 27 fevraldagi PQ 4623-son “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi va boshqa ko‘plab qarorlar va konsepsiyalarda o‘z aksini topgan. E‘tibor beradigan bo‘lsak, mazkur qarorlarda uzluksiz ta‘lim tizimining deyarli barcha turlari qamrab olinganligini ko‘rishimiz mumkin. Qolaversa, “2017 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da ham ta‘lim sohasini tubdan takomillashtirishga e‘tibor qaratilgan. Ta‘lim tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan mazkur hujjatlarning barchasida sohaga innovatsiyalarni kiritish, xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo‘llab-quvvatlash, ta‘lim turlari o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog‘liq umumiy jihatlar mavjud.

O‘zbekiston Respublikasining oliy pedagogik ta‘limini modernizatsiyalash tegishi meyoriy huquqiy ta‘minotga tayangan holda oshiriladi. Meyoriy-huquqiy ta‘minot pedagogik ta‘lim tizimidagi muayan o‘zgarishlarni tartiblashtiradi va uning keyingi rivojlanishi uchun asos hisoblanadi.

O‘zbekistonda bugungi kunda 130dan oshiq millat va elat, 15 dan ortiq diniy konfessiya vakillari istiqomat qiladi. Aholining ruhiy-ma‘naviy olami rang-barang va o‘ziga xosligini e‘tiborga olib mamlakatimizda tili, dini, millati, irqi, ijtimoiy mavqeyidan qat‘iy nazar, barcha insonlarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Zero mamlakatimiz polietnik davlat bo‘lib, turli millatlar va elatlar, diniy konfessiyalar o‘rtasida tinchlik va hamkorlikni barqarorlashtirmasdan turib fuqarolik jamiyati asoslarini yaratish mumkin emas. Shu sababli jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini mustaqillikning birinchi kunlaridanoq millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni

15-May, 2026-yil

mustahkamlash masalasini mamlakat taraqqiyotining asosiy vazifalaridan biri *-+ sifatida kun tartibiga qo‘ydi. Bu sohada amalga oshirilgan ishlar, turli millat va din vakillarining tinch-totuv va osoyishta yashab kelayotganligi olib borilayotgan siyosatning insonparvar va demokratik xarakterini namoyon etadi. Buni davlatimizning “Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi”, “Din va e‘tiqod asosidagi murosasizlik va kamsitishlarning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risida”gi Deklaratsiyaga, “Irqi kamsitishlarning barcha shakllarini tugatish to‘g‘risida”gi Konvensiya va boshqa xalqaro xujjatlarga qo‘shilganligi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunda e‘tiqod erkinligining mustahkamlanganligi va davlat tomonidan himoya qilinayotganligida ko‘rish mumkin. Zero, fuqarolik jamiyatini barpo etishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tolerantlikni nazariy va amaliy jihatdan milliy g‘oya mazmuniga singdirish davr talabidir. Biz istiqbolimizni taraqqiy topgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, davlat va jamiyat boshqaruvini erkinlashtirish, inson xuquq va erkinliklarini, fikrlar rang-barangligini o‘z hayotimizga yanada kengroq joriy qilishda ko‘ramiz. Biz butun ma‘rifatli dunyo, xalqaro hamjamiyat bilan tinch-totuv, erkin va farovon hayot kechirish, o‘zaro manfaatli hamkorlik qilish tarafdorimiz. O‘zbekiston hududida yashayotgan turli xalq va elat vakillarining birbiriga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi tolerantlikka xos bag‘rikenglik xususiyatlari azal azaldan kengayib, mustahkamlanib bormoqda. Bog‘rikenglik – bu har bir insonni o‘ziga xos bo‘lgan ichki ruhiy dunyosi yoki ong darajasi hisoblanib, ko‘nglida shodlik, istak-xohish, ko‘tarinkilik, o‘z ishiga berilganlik, o‘z faoliyatini butun jamiyat faoliyati deb anglash, ishonch, do‘stlik xohishi, ko‘nglida to‘plangan barcha shodlik, g‘am-alamlarni ochiqdan-ochiq, oydin ifodalab berish, o‘z javobgorligiga olish, bironta faoliyatda harxasha qilmaslik, har bir shaxsni kuchli sevish, har bir inson haqida o‘z fikrini ifodalash, kabi ijobiy sifatlar qatorida ba‘zi bir ko‘ngli qoralik, xarxasha topishlik, birovning ko‘ngliga ozor berishlik kabi salbiy xususiyatlarni ham sezish mumkin.

Lekin, bag‘rikenglik, deganda har bir insonga xos bo‘lgan shaxsiy xarakter sifatleri ham nazarda tutilishi lozim ba‘zi bir insonlarning nimalargadir ilhomlantiruvchi, serharakatchanligi, notiqlik orqali o‘zgalarga xayrixohlik qilishi, tabiiy g‘amxo‘rlik (tolerantlik) xususiyatlariga ega bo‘lishi, muloqot va o‘zaro munosabatda bag‘rikenglikka xos so‘zlar va iboralarni qo‘llashi bilan xayrixohligi sezilib turadi. Bu shaxslar o‘zgalalar uchun bag‘rikeng inson sifatida gavdalanishi kabilar tushiniladi.

Ko‘rinib turibdiki, bag‘rikenglik tushunchasi o‘zbek millatiga xos tolerantlik tushunchasining asosiy yo‘nalishi sifatida tasdiqlanadi. Chunki uning mazmunida to‘liq do‘stona ochiq ko‘ngillik, bir birovga bo‘lgan xohish, muloyimlik, nasihatgo‘ylik, tinchlantiruvchanlik, boshqalarning nohush holatini sezuvchanlik, uzoq maslakdoshlik, yoqimlilik, kayfiyat, bag‘ishlashlar kabi ifodalanadi. Bag‘rikenglik xilma-xil e‘tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashini anglatadi. Bunda shaxsiy xususiyatlar yig‘indisi tolerantlik tushunchasini ifodalab qadim-qadimdan insoniyat taraqqiyoti shu falsafiy kategoriyalarga asoslanganligini tasdiqlaydi. Bag‘rikenglik yoki tolerantlik xususiyatlariga ko‘ra, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an‘analarimiz asrlar osha bezavol yashab kelayopti va

15-May, 2026-yil

yangidan-angi an’analar va qadriyatlar bilan boyib kelmoqda. Chunki dunyodagi barcha rivojlanish jarayonlari ezgulik g‘oyalariga asoslangan bo‘lib, yaxshilik, tinchlik, do‘stlik kabi bag‘rikenglik, tolerantlik fazilatlariga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr-shafqat va bag‘rikenglikka da’vat etadi. Hozirgi zamonda bu g‘oya ezgulik yo‘lida butun jahon ham jamiyati a’zolarining hamkorligini nazarda tutadi. Mazkur tamoyillar tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashning muhim sharti hisoblanadi. Shunday ekan, tolerantlik, uning yuqori darajasi hisoblangan bag‘rikenglik g‘oyasini ham nazariy, ham amaliy jihatdan milliy ong, milliy mafkura asosiga aylantirish davr talabidir.

Xalqimizga xos bag‘rikenglik ham o‘zining qadimiy ildizlariga ega. Mamlakatimizda bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini yuksaltirish, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni, fuqarolar totuvligini ta’minlash, xorijiy mamlakatlar bilan do‘stona, teng huquqli munosabatlarni mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Shu bois siyosiy barqarorlik va millatlararo totuvlikni ta’minlashda, fuqarolarimizda yagona Vatan tuyg‘usini shakllantirishda, yurt istiqboliga daxldorlik hissini kamol toptirishda xalqimizning bag‘rikenglik xislati asosiy omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xullosa qilib shuni aytish mumkinki hozirgi vaqtga kelib, ba’zi davlatlarda milliy-etnik munosabatlarda ziddiyatlarning yuzaga kelishi turli ko‘rinishdagi nizo va kelishmovchiliklarga olib kelayotganini barchamiz eshitib, ko‘rib turibmiz. Bunday tahdidlarni bartaraf etish oldimizdagi muhim vazifalardan biridir. Yurt osoyishta bo‘lishi, turli millatlar ahil yashashi uchun, eng avvalo, millatlararo munosabatlarda bag‘rikenglik, bir millatni boshqasidan ustun qo‘ymaslik tamoyillariga amal qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

- 1.Sh.M.Mirziyoyev «Yangi O‘zbekiston Strategiyasi” Toshkent-2021y.
- 2.Ўроқова Наргиза Нуруллаевна Таълимни модернизациялаш шароитида ўқитувчилик касби ва педагогик кадрлар тайёрлашга қўйиладиган умумий талаблар. Ўзбекистон Республикаси, Тошкент шаҳри Сирғали тиббиёт коллежи катта ўқитувчиси. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS.
- 3.Ozbekistonda_bagrikenglik_va_millatlararo_totuvl.pdf
- 4.Ta’limni modernizatsiyalash jaraonida talabalarni millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalash omillari | Наука и инновации